

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari**

Son 8 Jild 4
2024

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 8 (4) - 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2024

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

Саидов Сарвар Атабулло ўғли – катта илмий ходим, Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот маркази, илмий тадқиқотлар бўлими.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Ҳожаев Азизхон Саидалоҳонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, “Tashkent International University of Education” халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулов Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Аҳмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Караматдиновна – психология фанлари доктори, доцент,

Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атақулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Бегамова Насиба Холмурзаевна</i> МУСТАҚИЛЛИК ЙИЛЛАРИДА АГРАР СОҶА ХОДИМЛАРИНИНГ МАЛАКАСИНИ ОШИРИШДА ХАЛҚАРО ҲАМКОРЛИКНИНГ РОЛИ (ЎЗБЕКИСТОН ЖАНУБИЙ ВИЛОЯТЛАРИ МИСОЛИДА)	11-19
<i>Насиратдинов Сапар Жеткербай-улы</i> ЭТНОГРАФИК ТАДҚИҚОТЛАРДА ФОТОГРАФИЯНИНГ ЎРНИ	20-25
<i>Нарманов Феруз Асфандиёрович</i> ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА ЖАЛОЛИДДИН МАНГУБЕРДИ ҲАЁТИ ВА ФАОЛИЯТИНИНГ ЎҚИТИЛИШИ	26-30
<i>Rustamov Ixomidin</i> “O‘ZBEKISTON - 2030” STRATEGIYASI – XALQ STRATEGIYASI (YANGI O‘ZBEKISTON TARIXI)	31-34
<i>Normo‘minov Aziz</i> O‘ZBEKISTONLIK SPORTCHILARINING PARAOLIMPIYAMUSOBAQALARIDAGI ISHTIROKI	35-39
<i>Turdiboyeva Gulmira</i> VOYAGA YETMAGANLAR HUQUQBUZARLIGIGA QARSHI KURASH BO‘YICHA TARG‘IBOTLAR SAMARASI	40-44
<i>Xamidova Shoir Rasulovna</i> PARASPORT TURLARI VA ULARNING QONUNIYATLARI	45-51
<i>Ахмедов Жасурбек Зокиржонович</i> МАДАНИЯТШУНОСЛИК ВА НОМОДДИЙ МАДАНИЙ МЕРОС ИЛМИЙ-ТАДҚИҚОТ ИНСТИТУТИ ФАОЛИЯТИ ТЎҒРИСИДА	52-54

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Raximov To‘xtabek Jumaboyevich</i> KICHIK BIZNES KORXONALARINING EKSPORT SALONIYATINI OSHIRISHGA TA‘SIR QILUVCHI OMILLAR TAHLILI	55-60
<i>Allaberganov Xushnud Allaberganovich</i> TASHQI SAVDO SALONIYATINING MINTAQA IQTISODIYOTIDA TUTGAN O‘RNI	61-68
<i>Амбарцумян Анастас Алексеевич</i> МЕЖДУНАРОДНЫЕ ТРАНСПОРТНЫЕ КОРИДОРЫ: СИНЕРГЕТИЧЕСКАЯ ВЫГОДА И ПОИСК РЕШЕНИЯ НЕПРОСТЫХ ЗАДАЧ	69-81
<i>Baqoeva Dilfuza</i> SANOAT KORXONALARIDA SOTUV TIZIMINING OLIV BORILISHI, MOHIYATI VA YO‘NALISHLARI	82-86
<i>Adilov Mirkomil Miralimovich</i> TIJORAT BANKLARI KREDIT QO‘YILMALARINING MANBALARINI TAKOMILLASHTIRISH	87-93

<i>Donayev Sheroli Burxonovich</i> DON MAHSULOTLARI KORXONALARIDA RIVOJLANTIRISH ASCENT STRATEGIYASINING AHAMIYATI	94-101
<i>Kaxarov Jasur Abulqosimovich</i> ГАСТРОНОМИЯ ТУРИЗМИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ТАШКИЛИЙ-ИҚТИСОДИЙ МЕХАНИЗМЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ	102-109
<i>Rahmonov Shuxrat Shavkatovich</i> ТУРИСТИК МАҲСУЛОТ ДИВЕРСИФИКАЦИЯСИНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ	110-117
<i>Sherov Alisher Bakberganovich</i> OLIY TA'LIM MUASSASALARINI MOLIYALASHTIRISHNING HUQUQIY ASOSLARI	118-129
09.00.00 – FALSAFA FANLARI	
<i>Tag'oyeva Dilnavoz Narziqulovna</i> МАНМУДХО'JA БЕҲБУДИЙ МА'РИФАТПАРВАРЛИК Г'ОЯЛАРИ ВА УЛАРИНИНГ ИЖТИМОИЙ- АХЛОҚИЙ МУНОСАБАТЛАРДАГИ КОНСТРУКТИВ МОҲИЯТИ	130-135
<i>Muhamedov Asror</i> G'ARB RENNESANSIGA TURTKI BO'LGAN OMILLAR	136-145
<i>Aripova Zulfiyaxon Salijanovna</i> HOZIRGI ZAMONDA ETIKA VA ESTETIKANI O'QITISHNING AMALIYIJTIMOIY AHAMIYATI	146-151
<i>Abdumalikov Abdulatif Abidjanovich</i> INSONNING TABIATGA NOOSFERAVIY MUNOSABATINI YUKSALTIRISH ZARURIYATI	152-156
<i>Xolmatov Uchqunjon Xamidullayevich</i> AXBORIY-PSIXOLOGIK VA MADANIY TAHDIDLAR SHAROITIDA MILLATLARARO TOTUVLIK VA HAMJIHATLIKNI TA'MINLASHNING TA'LIMIY-TARBIYAVIY VAZIFALARI	157-162
<i>Shonazarov Jamshid Shuxratovich</i> ЖАДИДЛАР ҒОЯЛАРИ ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН СТРАТЕГИЯСИ БИЛАН ҲАМОҲАНГ	163-168
<i>Ho'janova Tamara Jo'raevna</i> YANGI O'ZBEKISTONDA YOSHLARINI AXBOROT URUSHI DAVRIDA MAFKURAVIY TAJOVUZLARDAN ASRASH OMILLARI	169-174
<i>Quchqorov Javlon Suyundik o'g'li</i> MILLIY G'OYA VA DEMOKRATIK O'ZGARISHLAR DIALEKTIKASIGA MADANIY HODISALAR SIFATIDA QARASH	175-179
<i>Muxtorova Tutixon</i> GLOBALLASHUV JARAYONLARIGA FALSAFIY YONDASHUVLARNING O'ZIGA XOS JIHATLARI	180-186
<i>Rahmonova Mavluda Abdusamadovna</i> ABDURAUFIY FITRATNING "OILA" ASARIDA JAMIYAT MA'NAVIY-AXLOQIY RIVOJIGA DOIR QARASHLARI TAHLILI	187-194

<i>Pirnazarov Nurnazar</i> TANA, RUX VA MA'NAVİYATNING INSON BORLIG'IDAGI AKS ETISHINING FALSAFIY TAHLILI.....	195-201
<i>Ismailov Dilshod Baxriddinovich</i> DAVLAT FUQAROLIK XIZMATCHILARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING MA'NAVİY-AXLOQIY SEGMENTI:KOMPARATIV YONDASHUV	202-209
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Yuldoshova Shaxnoza Azimboyevna</i> RAY BREDBERI VA ISAJON SULTON ASARLARIDA MA'RIFATPARVARLIK MOTIVLARI TALQINI	210-216
<i>Bozorbekov Ahmadbek</i> O'ZBEK TERMINOLOGIYASIDA TEXNIK, ZAMONAVIY LOGISTIKA SOHASIDAGI TERMINLARNING YASHALISH MODELLARI VA PARADIGMATIKASI	217-230
<i>Xamrayev Fozilbek Yo'ldoshevich</i> ZAMONAVIY O'ZLASHMALARNI MILLIYLASHTIRISHDA O'ZBEK TILINING TARIXIY ZAXIRA MANBALARIDAN FOYDALANISH	231-236
<i>O'tebaeva Dilbar</i> TURKIY TILLARGA UMUMIY BO'LGAN EKOLOGIK ATAMALAR	237-242
<i>Asqarova Shaxnoza Kamolidinovna</i> EPIK KLISHELAR HAMDA ULARNING INGLIZ VA NEMIS TILLARIDAGI TALQINI ("ALPOMISH" DOSTONI MISOLIDA)	243-247
<i>Kadirova Zaynab Bakoyevna</i> INGLIZ TILIDAGI REKLAMANING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI	248-252
<i>Allaberganova Nilufar Matnazar qizi</i> QOFIYA ASOSLARIDAGI MATNLARNING LINGVOKOGNITIV XUSUSIYATLARI	253-256
<i>Nabiyeva Rushana Jamol qizi</i> OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI NOMLARI LEKSIK-SEMANTIK GURUHINING MA'NOVIY GURUHLARI VA ULARDA YANGI O'ZLASHMALARNING ISHTIROKI HAQIDA	257-262
<i>To'rayeva Iroda Sheramatovna</i> FOLKLORIZMLAR TIZIMIDA ETNOGRAFIK FOLKLORIZMLARNING O'RNI VA SPETSIFIKASI	263-268
<i>Qodirova Munisa Erkinjon qizi</i> BADIY MATNDA QO'LLANILGAN SAN'ATGA OID TERMINLARNING LEKSIK TIPOLOGIYASI (INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA)	269-272
<i>G'aniyeva Nozanin G'ayratovna</i> MARKAZIY OSIYODA JADID AYOLLARINING PATRIARXAL TUZILMALAR VA MUSTAMLAKACHILIK ZULMIGA QARSHI CHIDAMLILIGI VA QARSHILIGI	273-277
<i>Zaripova Dilfuza Baxtiyorovna</i> TURKIY ADABIYOTDA "IBROHIMI ADHAM" QISSALARI TAHLILI	278-284
<i>Eshniyazova Maysara Beknazarovna</i> ALISHER NAVOIYNING "ARBA'IN" ASARIDAGI HADISLAR BAYONIDA G'OYAVIY-BADIY IFODA MUKAMMALLIGI	285-292
<i>Raxmonova Dildora Mirzakarimovna</i> O'ZBEK JADID ADABIYOTIDA OVRUPO MADANIYATI TALQINI	293-298

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

- Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna*
MARKAZIY OSIYO DAVLATLARI HUQUQIY TIZIMLARIDA KODEKSLASHTIRISH
JARAYONINING AYRIM NAZARIY-HUQUQIY MASALALARI 299-306
- Узакова Гўзал Шариповна*
ШАҲАРЛАР ВА БОШҚА АҲОЛИ ПУНКТЛАРИДА АТРОФ МУҲИТНИ МУҲОФАЗА
ҚИЛИШНИНГ ЭКОЛОГИК-ҲУҚУҚИЙ ТАЛАБЛАРИ 307-325
- Пулатова Нодирахон Собиржоновна*
ТЕОРЕТИКО-ПРАВОВЫЕ АСПЕКТЫ УСТРАНЕНИЯ СУДЕБНЫХ ОШИБОК В ОБЕСПЕЧЕНИИ
ПРАВ ЧЕЛОВЕКА 326-332
- Nizamatdinov Kayrat Keunimjaevich*
MOBIL ALOQA XIZMATI KO'RSATISHDA MILLIY ALOQA OPERATORLARINING FAOLIYATINI
HUQUQIY TARTIBGA SOLISHNI TAKOMILLASHTIRISH 333-341
- Абдурахманова Нодирахон*
ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В
ОНЛАЙН АРБИТРАЖАХ: МЕЖДУНАРОДНЫЕ И НАЦИОНАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ 342-345
- Vokiyev Jahongir Nurmatjon o'g'li*
TA'LIM OLISH HUQUQINING GENEZISI HAMDA UNING YURIDIK TABIATI 346-356
- Madiyev Faxriddin Xoshim o'g'li*
SHAXSIY HAYOT DAXLSIZLIGI HUQUQINI TA'MINLASH MASALALARI 357-368
- Утапов Фурқат*
ИНДИВИДУАЛЛАШТИРИШ ВОСИТАСИ СИФАТИДА ТОВАР БЕЛГИСИНИНГ ҲУҚУҚИЙ
МАҚОМИ 369-374
- Dilboboyev Nozimbek Shavkat o'g'li*
XALQARO VA MILLIY DARAJADA INVESTITYA QONUNCHILIGINING RIVOJLANISH
TENDENSIYASI 375-381
- Назарова Марҳабо*
ГОСУДАРСТВЕННАЯ ПОЛИТИКА И РАЗВИТИЕ ЖЕНСКОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В
УЗБЕКИСТАНЕ 382-386
- Абулхайров Рустамхон Ибодуллаевич*
ПОРТЛАШ СОДИР БЎЛГАН ЖОЙНИ КЎЗДАН КЕЧИРИШНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ВА ЎТКАЗИШ
МАСАЛАЛАРИ 387-400
- Абдусамиева Дилрабо Абдувахоб кизи*
ВОПРОСЫ РЕСОЦИАЛИЗАЦИИ БЫВШИХ ОСУЖДЕННЫХ В НЕКОТОРЫХ
МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТАХ..... 401-406
- Abdikhakimov Islombek*
LEGAL RELATIONS AND STAKEHOLDERS IN QUANTUM TECHNOLOGIES REGULATION: A
COMPREHENSIVE ANALYSIS OF GOVERNANCE FRAMEWORKS 407-412

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

- Djabbarova Nilufar Baxtiyarovna*
TALABA-QIZLARDA LIDERLIK SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHDA FALSAFIYPEDAGOGIK
YONDASHUVLARNING ROLI 413-417

<i>Mamatqosimov Jahongir Abirqulovich</i> BO'LAJAK REJISSYORLARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI ADABIY ASARLAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISHDA DEBYUT MASHG'ULOTLARINING AHAMIYATI	418-423
<i>Kurbanova Shukurjon Yeldashbayevna</i> HOFIZ XORAZMIY DIDAKTIK QARASHLARINI O'RGANISHNING HOZIRGI HOLATI	424-429
<i>Ismoilova Shodiyaxon Xusanboy qizi</i> NEMIS TILIDAN KEYIN INGLIZ TILI O'RGANISH JARAYONIDA FONETIK INTERFERENSIYANI YUZAGA KELTIRUVCHI OMILLAR	430-435
<i>Salimov Ma'ruf Eshdovlat o'g'li</i> O'QUVCHILARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI	436-439
<i>Палванова Умида Бахрамовна, Тургунов Собитхон Ташпулатович, Якубова Азада Ботировна</i> ОРГАНИЗАЦИЯ И УПРАВЛЕНИЕ ОБУЧЕНИЕМ СТУДЕНТОВ НАВЫКАМ ОКАЗАНИЯ ПЕРВОЙ ПОМОЩИ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ СИСТЕМНОГО ПОДХОДА	440-444
<i>Rasulova Fotima Farxotovna</i> O'QUVCHILARNI IJODIY FIKRLASHGA YO'NALTIRISHNING NAZARIY VA USLUBIY YO'NALISHLARINING ILMIY TAHLILI.....	445-450
<i>Saidxo'jayev Muhammadxo'ja Ma'rufxo'ja o'g'li</i> YOSHLARNI MA'NAVIY-MA'RIFIY TARBIYALASHDA IJTIMOY - PEDAGOGIK OMILLAR VA ULARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	451-456
<i>Utepbergenov Aydos Janabayevich</i> SAHNA NUTQI O'QITISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI	457-461
<i>Nozima Muqimovna Hamdamova</i> MAJBURIY FANLARDAN TALABLARNING KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA GRAFIK DASTURLARIDAN FOYDALANISH.....	462-467

Received: 30 July 2024
Accepted: 5 August 2024
Published: 15 August 2024

Article / Original Paper

A VIEW OF THE DIALECTIC OF NATIONAL IDEOLOGY AND DEMOCRATIC CHANGE AS CULTURAL PHENOMENA

Quchqorov Javlon Suyundik ugli, PhD

Head of the Department of Uzbek language and humanities Samarkand State University
Kattakurgan branch

js.kuchkorov@gmail.com

Abstract. In this article, the reasons for the conclusion of the dialectic of the national idea and the dialectic of democratic changes as cultural phenomena and the process of formation and improvement of the democratic civil society are highlighted.

Keywords: Civilization, ideology, creed, upbringing, dialectic of democratic changes, cultural phenomenon, correlational-functional and substantial laws.

MILLIY G'OYA VA DEMOKRATIK O'ZGARISHLAR DIALEKTIKASIGA MADANIY HODISALAR SIFATIDA QARASH

Quchqorov Javlon Suyundik o'g'li, PhD

O'zbek tili va gumanitar fanlar kafedrasi mudiri, Samarqand davlat universiteti Kattaqo'rg'on filiali

Annotatsiya. Ushbu maqolada Milliy g'oya va demokratik o'zgarishlar dialektikasiga madaniy hodisalar sifatida qarash tarixni dialektik madaniy tushunish tufayli yuzaga kelgan xulosa sabablari va demokratik fuqarolik jamiyatini shakllantirish va takomillashtirish jarayonlari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Sivilizatsiya, mafkura, aqida, tarbiyalash, demokratik o'zgarishlar dialektikasi, madaniy hodisa, korrelyasion-funksional va substansional qonunlar.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I8Y2024N25>

Kirish. Milliy g'oya va demokratik o'zgarishlar dialektikasiga madaniy hodisalar sifatida qarash tarixni dialektik madaniy tushunish tufayli yuzaga kelgan xulosadir. Buning birinchi sababi, xalqimiz va uning yo'l boshchilarining asosiy maqsadi mamlakatimizda milliy va umuminsoniy madaniy qadriyatlar uyg'unligiga asoslangan jamiyat – demokratik fuqarolik jamiyati, ya'ni huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurishdan iborat faoliyatimiz madaniy jarayon ekanligidir. Bu faoliyat mazkur madaniy qadriyatlar yuzaga kelishining atributi - mavjudlik usulidir. Jamiyatning rivojlanishi esa demokratik tartiblar asosida yuz berishi kerak. Buning uchun milliy g'oyalarimiz, jumladan, demokratiya to'g'risidagi qarashlarimizni madaniy borliqning ichki tizimidan kelib chiqadigan umumijtimoiy qonunlar – korrelyasion-funksional va substansional qonunlar to'g'risidagi bilimlar bilan to'ldirishimiz lozim. SHunda milliy g'oya

va demokratik o'zgarishlar dialektikasi tizimida milliy g'oyamiz to'laqonli ravishda o'z metodologik funksiyasini bajaradi.

Bu xulosaning ikkinchi sababi, olimlarimizning madaniyat va madaniy hodisalar, jumladan, tajriba, mafkura, demokratiya va qonunlar, sivilizatsiyalar to'g'risidagi qarashlari, xususan I.A.Karimovning "jamiyatning rivojlanishi evolyusion yo'l bilan normal, madaniyatli taraqqiyot"[1] dan iborat, "jahon va o'zimizning amaliyotimizdan olingan barcha unumli tajribani rad etmagan holda o'z ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va huquqiy taraqqiyot yo'limizni tanlab olish Respublikaning qat'iy pozitsiyasidir"[1], "demokratik jarayonlar o'z ob'ektiv qonunlari asosida rivojlanadi"[2], "xalqning madaniyati va ma'naviyati jamiyatimizni muvaffaqiyatli ravishda olg'a siljitishda hal qiluvchi, ta'bir joiz bo'lsa, belgilovchi ahamiyatga egadir"[3], kishilik jamiyati muayyan tarixiy makon va zamonga ega "ko'pdan-ko'p mustaqil sivilizatsiyalardan"[3, 144-b] tashkil topgan, "yangi mafkuraning asl ma'nosi eskicha aqidalardan xoli bo'lgan, mustaqil va yangicha fikrlovchi kishilarni tarbiyalashdan iboratdir"[3, 152-b] degan ijtimoiy-falsafiy fikrlaridir.

Buning uchinchi sababi, madaniyatning mazmun-mohiyatiga oid konsepsiyalar tadqiqotchilar tomonidan tahlil qilinib, madaniy borliq to'g'risidagi yangi konsepsiyaning yuzaga kelishidir. Tarixni dialektik madaniy tushunish va uning tufayli yoritilgan korrelyasion-funksional va substansional qonunlar doirasida doktorlik va nomzodlik ishlari himoya qilindi. SHuning uchun ham yuridik fanlari doktori, professor Z.M.Islamov "shu bois keyingi vaqtda tarix, jumladan, huquqni dialektik madaniy tushunish ham tarkib topmoqda"[4], deganida haqdir.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Biz demokratik fuqarolik jamiyatini shakllantirish va takomillashtirish sari ketmoqdamiz. Bu holat, birinchidan, xalqning ishtirokida hokimiyatning bevosita yoki bilvosita boshqaruvi amalga oshadi[5], demakdir. Ikkinchidan, bu holat davlat qonun doirasida insonlar uchun, ularning tinch-totuv va farovon hayot kechirishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratib bermog'i, imkoniyatlarini ta'minlamog'i shart, degani. Bu holat, uchinchidan, O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolarning qonun oldida tengligini ta'minlash demakdir. Davlatimizning fuqarolar bilan munosabatidagi bu umumdemokratik g'oya-tamoyil-konstitutsion normalar I.A.Karimovning: "...demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish pirovard maqsad bo'lib qolishi kerak"[1. 8-B], degan dasturilamal g'oyalari asosida qabul qilingan.

Xullas, I.A.Karimovning milliy manfaatlarini ifodalagan demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati to'g'risidagi va boshqa olimlar-tadqiqotchilarning iqtisodiy-g'oyaviy, siyosiy va huquqiy g'oyaviy, falsafiy va axloqiy g'oyalari negizida yuzaga kelgan normativ-huquqiy hujjatlar asosida mamlakatimiz hayotining barcha sohalarida demokratik o'zgarishlar qilindi. Va bu demokratik o'zgarishlar yuzaga keltirgan ehtiyojlar milliy g'oyalar ko'rinishlarida navbatda demokratik islohotlarning gnoseologik asosi bo'lib xizmat qilmoqda. Har bir mamlakatning manfaatli istiqbollarini aks ettiruvchi va umuminsoniy manfaatlarga zid kelmagan milliy g'oyalar, ular siyosiy g'oyaviy, huquqiy g'oyaviy, iqtisodiy - g'oyaviy, estetik va axloqiy - g'oyaviy, falsafiy - g'oyaviy shakllarda bo'lmasin, bundan qat'iy nazar, SH.M.Mirziyoev so'zi bilan aytganda tanqidiy tahlil asosida yuz beradi[6]. Tanqidiy tahlil aslida, o'z mohiyatiga ko'ra bilishning dialektik yo'lidir.

Olimlarning fikriga ko'ra "demokratiya tajribaga asoslangan va doimiy ravishda mazmunan boyib, barkamollashib, mohiyati chuqurlashib boradigan faoliyatdir"[7]. Demak,

shunday ekan demokratik faoliyat demokratiyaning mavjudlik usuli, ya'ni atributidir. Demokratiyaga bunday faoliyatli yondashuv substansional yondashishning ko'rinishidir. Demokratiya madaniy hodisa, chunki uning yuzaga kelishida ongliklik bor, maqsadga muvofiqlik bor. U ayni vaqtda ishlov berish jarayoni va uning natijasidir. Agar demokratiyani rejim-tartibot sifatida bir butun madaniy tizim qilib olsak, unda uning sistema tashkil qiluvchi substansional elementlari ham mavjud. Ularning birinchisi, insonlar bo'lib, ular demokratiyaning yaratuvchilari va tashuvchilaridir, ya'ni sub'ektlaridir. SHuning uchun ham demokratiyaning xalqaro darajadagi mazmuni, regionlar darajadagi mazmunlari, mamlakat darajadagi mazmuni, millat darajadagi mazmuni, sinf va sotsial qatlam darajasidagi mazmuni, oila darajasidagi mazmunlari mavjuddir. SHuning uchun umuminsoniylik va milliylikka asoslangan milliy demokratik taraqqiyot to'g'risida ham gapiramiz. Nafaqat bu jamiyatning vertikal tuzilishi bo'yicha, balki gorizontallik tuzilishi bo'yicha ijtimoiy hayot sohalaridagi demokratik tartibotlar to'g'risida ham fikr yuritamiz. Ushbu holatni hisobga olib, I.A.Karimov "aytish mumkinki, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati demokratiyaning o'zaro uzviy bog'liq bo'lgan ikki jihati, ikki qanotidir"[8], degan edi. Ikkinchisi, demokratiyaga bo'lgan ehtiyoj, undan manfaatdorlikdir. Demokratik ehtiyoj va manfaat demokratik rejim yuzaga kelishi va amal qilishining motividir. Uchinchisi, demokratiyaga bo'lgan ehtiyoj va manfaatlarini anglashdir. Keyingi vaqtlarda bu ma'naviy jarayon "demokratik ong" tushunchasi orqali ifodalanmoqda. To'rtinchisi, demokratik ong doirasida demokratik g'oyalar, jumladan, demokratik siyosiy rejimlarni ishlab chiqish, ijod qilish jarayonlari yuz beradi. Tadqiqotchilarning ishlari buning yorqin faktidir. Beshinchisi, demokratiya to'g'risidagi ijod na'munalari, kitob, dissertatsiya, maqola - tavsiyalar ko'rinishlarida tarkib topadi. Oltinchisi, ushbu tavsiyalarning hayotga joriy bo'lishidir.

Demak, demokratiyani ijod qilish va demokratiya to'g'risidagi tavsiyalarni hayotga qo'llash demokratik faoliyatdir. Bu bilan ham demokratiyaning to'liq ma'no-mazmuni Yechilmaydi. Masalan, X.T.Odilqoriev va D.X.Razzoqovlarning fikricha demokratiya: "Real demokratiya hech qaerda va hech qachon xalq hokimiyati bo'lgan emas, chunki bunday holda u nodavlat, ijtimoiy o'z-o'zini boshqarishni bildiradi. Aslida "demokratiya" tushunchasi o'zi paydo bo'lgan zamonlardan boshlab davlat bilan, demak majburlash bilan bog'langan. SHu sababli, demokratiya eng yaxshi ma'noda ko'pchilikning kamchilik ustidan hokimiyati hisoblanadi, ko'pincha esa ko'p yoki kamroq darajada xalq nazoratida bo'luvchi, yaxshi tashkil etilgan ozchilikning boshqaruv shaklidir.

Tahlil va natijalar. Shunday qilib, jamiyatda davlat mavjud bo'lganda demokratiya to'liq bo'lmaydi, to'liq demokratiyada esa davlatga – ijtimoiy munosabatlarni boshqarishning hokimiyat ko'rinishidagi shakliga ehtiyoj qolmaydi"[9]. Demak, bunda "demokratiya" tushunchasiga ontologik yondoshish mavjudligini ko'ramiz. Ko'pchilik olimlar tomonidan demokratiyaga berilgan ta'rif-tavsiflarda asosiy urg'u davlat hokimiyati va uning o'rnatadigan rejimiga qaratilgan. To'g'ri, davlat hokimiyati mamlakat ijtimoiy hayotining barcha sohalarida jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlarini kafolatlaydi. Ammo demokratiyani davlatchilik bilan chegaralab qo'yish kerak emas. Bunda huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati demokratiyaning ikki ajralmas tomoni bo'lsada, davlat hokimiyati fuqarolik jamiyatining barcha sohalarining ichki ishlariga aralashmasa-da, uni kafolatlaydi. Bu esa oilada ham, xususiy ishlab chiqarish korxonasida ham demokratiya bo'lishi kerakligini anglatadi. Bu xususda A.Dal

Robert: “Agar, demokratiya davlatni boshqarishda oqlangan ekan, u xuddi shundayin iqtisod sohasida korxonani boshqarishda ham oqlangan”[10],- deydi.

To'g'ri, jamiyatda davlat kuchli sub'ekt. U barchaning huquq va manfaatlarini ifodalashi va kafolatlashi kerak. Va aksincha, demokratiyaning, davlat o'rnatgan demokratiyaning amalga oshishi uchun xalq ham tayyor bo'lishi kerak.

Tadqiqotchi K.Bahriev demokratiya xususida quydagi fikrni bildirgan: “Muntazamlik, murosa, mutanosiblik – insonning nasibasidir va demokratiya shudir. Yaratuvchiga, tabiatga va o'z qalbiga izchil uyg'unlikni, aniq muvozanatni asray olgan inson saodatlidir, xuddi shunday – yakkahokimliksiz, qonunchilik, ijroiya va sud hokimiyatlari o'rtasida muvozanatni saqlay olgan, xalqdan kelayotgan fikrlarga qulog'i ochiq, qonunni (tuzukni, yasoqni) e'zozlagan davlatgina mustahkamdir”[11].

S.O.Abduxoliqov yuqoridagi demokratiyaga berilgan ta'riflarni umumlashtirib, demokratiyaga quydagicha ta'rif-tavsif beradi: “Demokratiya” so'zi etimologik ma'nosiga ko'ra xalq hokimiyatidir. Ammo u keng ma'noda manfaatlar uyg'unligi va ularning boshqarilishidir. Agar fuqarolar huquqlari xalq hokimiyati orqali amalga ohsa, qabul qilinsa va kafolatlansa, unday jamiyatga demokratik fuqarolik jamiyati deymiz. SHu o'rinda fuqarolik huquqi, yoki “sivilnoe pravo” so'ziga e'tibor berish masalaning mohiyatini yoritishga yordam beradi, degan fikrdamiz. “Sivilizatsiya” lotinchadan “fuqarolikka oid; davlatga oid” degan ma'nolarni beradi. Sivilizatsiya ijtimoiy formatsiya ichidagi o'z aniq sub'ektlari – aholisi – fuqarolari va davlat hokimiyatiga, tarixiy makon va zamonga ega mamlakatdir. Agar davlat bo'lmasa, fuqarolik ham bo'lmaydi va aksincha, fuqarolar bo'lmasa davlat ham tarkib topmaydi. Ular bir-birlari bilan o'zaro chambarchas bog'liqdirlar. Demak, fuqarolik jamiyati esa, ya'ni o'z fuqarosiga ega jamiyatlar – mamlakatlar kishilik tarixida mavjud bo'lib kelgan. Ammo demokratik fuqarolik jamiyati esa, ya'ni fuqarolarning huquqlari xalq hokimiyati tomonidan ta'minlangan jamiyat esa hamisha bo'lgan emas”[12].

Muhokama. Demak, demokratiya manfaatlar uyg'unligi va uning boshqarilishi ekan, bunda xalq hokimiyatni o'z qo'liga olsa, manfaatlar uyg'unligini ta'minlovchi bu hokimiyatni bevosita demokratiya va vakillik demokratiyasi orqali tarbibga soladi[13]. Davlatning huquqlarning ob'ektivligidan kelib chiqishi va unga muvofiq yuridik normalarni ishlab chiqishi uning huquqiylikidan dalolat beradi. Bunday davlat huquqiy davlat tusini ola boshlaydi. Davlatning ichki ishlariga aralashmaydigan sohalar (masalan, oila instituti va boshqalar) va lekin huquqiy davlat tomonidan kafolatlanadigan sohalar fuqarolik jamiyati deb yuritilar ekan, undagi asosiy vazifa fuqarolar, jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlarini ta'minlash hisoblanadi. SHuning uchun “demokratik fuqarolik jamiyati” va “huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati” tushunchalari bir xil ma'noga egadirlar. Mustaqil mamlakatimizda demokratik fuqarolik jamiyatini shakllantirish pirovard maqsadimizdir.

Endi e'tiborni milliy istiqlol g'oyasiga qarataylik. Mafkura arabchadan fikrlar majmui demakdir. G'oya muayyan fikrlar-maqсад-muddao sari etaklaydigan fikr. Mafkura muayyan ijtimoiy guruh, qatlam, millat, jamiyat, davlat manfaatlar, orzu-istak va maqsad-muddaolari ifodalangan g'oyaviy-nazariy qarashlar va ularni amalga oshirish tizimi[14]. Demak, xalq yoki sotsial qatlamlarning mafkurasi tub manfaatlarini ifoda etadigan g'oyalar tizimi. Bu g'oyalar siyosiy, iqtisodiy, falsafiy, diniy, huquqiy kabi qarashlar ko'rinishlarida bo'ladi. Bizning milliy g'oyamiz esa mamlakatimiz aholisining tub manfaatlarini ifodalaydi[15]. Har qanday shaxs, ijtimoiy guruh, elat, millat, xalq, davlat va jamiyatning o'z oldiga qo'ygan maqsadi va uni amalga

oshirishga qaratilgan vazifalari bo'ladi. Shuningdek, mustaqil O'zbekiston o'z oldiga huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirish va rivojlantirishni bosh strategik maqsad qilib qo'ydi. Demak, bizning **bosh strategik maqsadimiz** – ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan erkin demokratik jamiyat barpo etishdir[15].

Xulosa. Xullas, milliy g'oya mamlakatimizdagi amalga oshirilayotgan demokratik islohotlarning gnoseologik asosini tashkil etsa, aksincha, demokratiya g'oyalari bilan sug'orilgan o'zgarishlar milliy g'oyalarimizning manbai va mezonini hisoblanadi. Xuddi shu holat milliy g'oya va demokratik o'zgarishlar dialektikasining mohiyatidir. Demokratik o'zgarishlar to'g'risidagi fikr-bilimlar milliy g'oyamizning o'zak qismini tashkil etadi.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Каримов И.А. Ўзбекистоннинг ўз истиқлол ва тараққиёт йўли. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 1992. – Б. 10.
2. Каримов И.А. Ўзбекистоннинг сиёсий-ижтимоий ва иқтисодий истиқболнинг асосий тамойиллари. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 1995. – Б. 10.
3. Каримов И.А. Ўзбекистон иқтисодий ислохотларни чуқурлаштириш йўлида. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 1995. – Б. 139-140.
4. Исламов З.М. Давлат ва ҳуқуқ назарияси. – Тошкент: Адолат, 2007. – Б. 18.
5. Отамуродов С. Миллий ривожланиш фалсафаси. – Тошкент: Академия, 2005. – Б. 224.
6. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик фаолияти бўлиши керак.//Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2018. – Б. 235.
7. Иброҳимов А., Султанов Х., Жўраев Н. Ватан туйғуси. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 1996. – Б. 327.
8. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: “Маънавият”, 2008. – Б. 108.
9. Одилқориев Х.Т., Раззоқов Д.Х. Сиёсатшунослик. – Тошкент: Ўзбекистон файласуфлар миллий жамияти, 2009. – Б. 200-201.
10. Dahl, Robert. A Preface to Democratic Theory. — Chicago: [University of Chicago Press](#), 2006.
11. Баҳриев К. Демократия ва инсон ҳуқуқлари. Ҳуқуқий ислохотлар ўзбек йўлининг ўзига хосликлари. – Тошкент: Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси, 1997. – Б. 50.
12. Абдухолиқов С.О. Демократия ва фуқаролик жамияти диалектикаси//Тошкент давлат юридик институтида «Конституция ва фуқаролик жамияти» мавзусида ўтказилган илмий-назарий конференция тезислари тўплами (2006 йил 25 январ). – Тошкент, 2006. – Б. 9.
13. Азизхўжаев А. Чин ўзбек иши. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2011. – Б. 76.
14. Назаров Қ. Жаҳон фалсафаси қомуси.– Тошкент: Маънавият, 2019. – Б. 244.
15. Яхшиликков Ж.Я., Муҳаммадиев Н.Е. Миллий ғоя – тараққиёт стратегияси. Монография. – Тошкент: Фан, 2017. – Б.112.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 8 (4) – 2024

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).